

OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI DARS MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM METODLARINING QO'LLANILISHI

*Toshkent tibbiyot akademiyasi
Pedagogika, psixologiya va
tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
Saydullayeva Muqaddam Akbarovna*

Annotatsiya: Oliy ta'lismuassasalarida talabalarni o'qitishda innovatsion ta'lismetodlaridan foydalanish talabalarda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, shuningdek ta'lism-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tadbiq eta olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Key words: metodlar, innovatsiya, jarayon, OTM, ta'lism texnologiyasi

Oliy ta'lismuassasalarida talabalarni o'qitishda innovatsion ta'lismetodlaridan foydalanish bugungi kunda keng targ'ib va talab qilinayotgan soha yoki yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunga kelib bir necha metodlarni sanab o'tishimiz mumkin. Shular jumlasidan:

“Assesment” metodi

“Assesment” inglizcha “assessment” so'zidan olingan bo'lib, “baho”, “baholash” ma'nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi mustaqil topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lism sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, babs- munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash; talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash; talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

“Assesment” metodi o'quv jarayonida dars mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars mashg'ulotining boshlanish yoki oxirida yoki o'quv predmetning biron-bir bo'limi tugallanganida, amaliy mashg'ulotlarda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lism oluvchilarning bilimlarini tekshirish, talabalarning dastlabki bilimlari, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan.

Ushbu metod dars mashg'uloti jarayonida yoki dars mashg'ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo'llash mumkin. Bu metoddan uyg'a vazifa berishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda topshiriqlar shakli -jadvaldagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

“Assesment” metodi bo'yicha topshiriq namunasi

Test. Tegishli fan <u>bo'yicha o'tilgan (bo'lim, kurs)</u> yuzasidan 1- 2 ta test beriladi.	Muammoli vaziyat. O'tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi.
Belgilar. Mavzu <u>bo'yicha ilmiy-nazariy fikrlar, g'oyalar, ta'riflar tugallanmagan fikr ko'rinishida beriladi, masalan:ta'rif bering,ilmiy asoslang...., yoriting... va b.</u>	Amaliy <u>ko'nikma.</u> <u>O'tilgan</u> mavzu mazmunini hayotda ish foaliyatida qo'llashdagi <u>ko'nikmalarga tegishli topishiriq</u> beriladi, masalan:chizing, hisoblang, to'ldiring, <u>toping, solishtiring...</u> va b.

“Esse” metodi

“Esse” metodi – (fransuzcha tajriba, dastlabki loyiha) shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta'lim oluvchi o'zining mavzu bo'yicha taassurotlari, g'oyasi va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi.

Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog'ozga tushirish, iloji boricha ruchkani qog'ozdan uzmasdan - to'xtamasdan yozish, so'ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo'lishi e'tirof etilgan. Esseni muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag'ishlab yozish maqsadga muvofiq. Ba'zan, ayniqsa ta'limiy-tarbiyaviy soatlarda ta'lim oluvchilarga o'zlariga yoqqan mavzu buyicha Esse yozdirish ham muhim ahamiyatga ega bolib yaxshi natija beradi.

Bu usul ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish har tomonlama ko'rib chiqilmaguncha xotirada saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalashga imkon beradi.

“Esse” metodining tarkibiy tuzilmasi

“Esse” metodidan dars mashg'uloti jarayonida foydalanishda o'qituvchi talabalarga mavzu yuzasidan videorolik, audiofayllar eshitiradi talabalar eshitganlarini kichik Esse tarzida yozadi.



“Zakovatli zukko”

Mavjud bilimlarni puxta o’zlashtirishda talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga ega ekanliklari muhim ahamiyatiga ega. “Zakovatli zukko” metodi talabalarda tezkor fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o’z hoxishlariga ko’ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko’rish istagida bo’lgan talabalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatda to’g’ri va aniq javob qaytara olishi kerak. Savollarning murakkablik darajasiga ko’ra har bir savolga qaytarilgan to’g’ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o’rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o’quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi talabalarning shaxsiy imkoniyatlari to’g’risida aniq tasavvurga ega bo’lishlarini ta’minlaydi. “Zakovatli zukko” metodi talabalar bilan yakka tartibda guruhli va ommaviy shakllardagi dars mashg’ulotlarida birdek qo’llanishi mumkin.

Talabalarning o’qitishda o’quv materiallarini tizimlashtirishga doir interfaol topshiriqlar tizimi va turlari

Interfaol usullarni qo’llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari rivojlanib, takomillashib boradi. Bu masalada Amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan va bu Blum taksonomiyasi deb nomланади. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va tizimlashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatları rivojlanishiغا muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko’ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo’llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo’ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo’lib, bunda talaba atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.



Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, talaba dallilar, qoidalar, jadval, diagrammalarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda talaba olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nnaviy ta'lif shakllaridagi o'quv jarayonoi holatlarida ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahil darajasidagi tafakkurda talaba yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, dallillar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqa lashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda talaba ijodiy ish bajaradi, biror mashqni bajarishda tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda talaba mezonlarni ajrata oladi, ularga rioxha qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullah, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Demak ta'lif jarayonida odatda, o'qituvchi ona tilni o'rgatish, o'qitish usulini o'zi tanlaydi. O'qitishning mazmuni deyarli o'zgarmaydi, ammo uni talabalarga yetkazish usuli o'zgarishi mumkin. O'qitishning bir qancha usullar orqali olib boorish imkoniiyati mavjud. Dars mashg'uloti jarayonida quyidagi o'qitish usullaridan foydalanish mumkin. Masalan:

-Ma'ruza.

- Misol keltirish.
- Namoyish qilish.
- Bahs-munozara.
- Savol-javoblar.

Bu usullar orqali tlabalar bilan muloqot qilish, shuningdek, qo'yilgan talimiylar, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadga yo'naltirilgan fikrlarni yoritish usuli yoki shaklidir. O'qituvchi muayyan vaziyat yoki darsmashg'uloti uchun mos usulni tanlay bilishi kerak. O'qitishning mos va samarali usulini tanlash uchun bir qancha omillarni hisobga olish zarur.

Talabalarining soni.

Muayyan vaziyatli holatlarga taylor turish.

Qo'llanilayotgan usulning qo'yilgan maqsadga mos kelishi.

Agar biror bir asardan matn muhokama qilinsa, talabalarни kichik guruhlarga bo'lib, jamoa yhli bilan bahs-munozara o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu usulda texnik vosita - audio- yozuvlardan foydalanish mumkin. Usullarni qo'llaganda vaqtini doimo hisobga olish zarur.

“Rasmlarni to'g'ri joylashtirish”

Kichik guruhlarda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobiy natijalarini kafolatlaydi. Ushbu usulni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: Talaba tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma- ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalami ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi; har bir guruhga kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarining ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi; guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lgach, kartochkalarning orqa tomoni o'chiriladi va maxsus qoplama ochilib topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi. Agar topshiriq guruhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa yakuniy jarayonida kartochkalar orqa tomoni o'chirilganida mavzuning mohiyatini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo'ladi. Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda talabalarda mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtaqidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

“Video topishmoq”

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda, o'qituvchilar oldida filologik ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinci va maqsadga muvofiq foydalanish vazifikasi turubdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: talabalar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videoyo'iha namoyish etadi; talabalar har-bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini qayd etadilar. O'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

“Birinchisi (oltinchisi, ettinchisi..) ortiqcha” metodi

Talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga ushbu metod alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalgalashiriladi: o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berish uchun xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish; hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta, beshta va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rinni olishiga erishish; talabalarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish; talabalar o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliknini asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasida mantiqiy bog'liqliknini ko'rsata va asoslay olishi talabalarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish rivojlantiradi. 1-4 kurslardagi sohaga oid fanlarning barcha mavzularda foydalanishlari mumkin bunda, mavzu yuzasidan lug'atlarni yod olishda, matnlardagi notanish so'zni ajratib ko'rsatishda ushbu metod yaxshi natija beradi.

Darsliklardan foydalanishda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun foydalaniladigan qandaydir yordamchi vosita deb bilmaslik kerak. Darslik, avvalo, talabalar uchun muhim bilim manbalaridan biridir. Lekin u bayon etilgan materialni mustahkamlashning va talabalar bajaradigan aqliy ishlarni faollashtirishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ammo buning uchun o'qituvchi darslikni qo'llashda eng muhim metodik talablarga rioya qilishi zarur. U dars mashg'ulotlarni o'tkazishdagi muayyan holatda darslikni qay yo'sinda qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi, shu orqali talabalarni fikrlashga rag'batlantirishi, ularning o'rganiladigan materialni quruq yodlashi va yuzaki eslab olishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar orqali dars mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu dars mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlariidan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi. T.: "O'zMU xabarları, 1/2/1. 2022.95-96 b.
2. Fayzullayev S.I. Tibbiyotda o'zbek va ingliz tillarida nutqiy kompetentsiyasini integratsion o'qitish mexanizmi, "SCIENTIFIC ACADEMY" Ilmiy tadqiqotlar markazi "Ta'lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi "Ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun" xalqaro ko'rik tanloving materiallari to'plami

28-fevral, 1-QISM O'ZBEKISTON -2023. 391b.